



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

OGAHIYNING “ZUBDATU-T-TAVORIX” ASARIDAGI HUKMDOR VASFIGA BAG‘ISHLANGAN RUBOIY VA QASIDA JANRI NAMUNALARI

Atadjanova Saodat Atadjanovna
Urganch davlat universiteti, doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir, tarixchi, tarjimon va davlat arbobi bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdatu-t-tavorix” asaridagi ruboiy va qasida janri namunalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari asardagi ruboiylarning yaratilish sabablari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan o‘rinlar va qasida janri tabiati, uning poetik belgilari, o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni masalasi ham tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, ruboiy, qasida, lirik janrlar, hazaj, axrab, husni matla.

ОБРАЗЦЫ РУБАИ И КАСИДЫ, ПОСВЯЩЁННЫЕ ОПИСАНИЮ ПРАВИТЕЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ОГАХИ «ЗУБДАТУ-Т-ТАВАРИХ»

Атаджанова Саодат Атаджановна
Ургенчский государственный университет, докторант

Аннотация

В данной статье анализируются примеры жанров рубаи и касид в произведении «Зубдату-т-таварихс» поэта, историка, переводчика и государственного деятеля Мухаммада Ризы Огахия. Кроме того, подробно объясняются причины создания рубаи в произведении, анализируется природа жанра касид, его поэтические особенности и место в узбекской литературе.

Ключевые слова: Огахи, рубаи, касыда, лирические жанры, хазадж, ахраб, хусни матла.

SAMPLES OF RUBAI AND QASIDA GENRES DEVOTED TO THE DESCRIPTION OF THE RULER IN OGAHI’S WORK “ZUBDATU-T-TAVARIKH”

Atadjanova Saodat Atadjanovna
Urgench State University, Doctoral Student

Abstract

This article analyzes examples of the rubai and qasid genres in the work "Zubdatu-t-tavorix" by the poet, historian, translator, and statesman Muhammad Riza Ogahiy. In addition, the reasons for the creation of the rubai in the work are explained in detail, and the nature of the qasid genre, its poetic features, and its place in Uzbek literature are also analyzed.

Keywords: Ogahi, rubai, qasida, lyrical genres, hazaj, akhrab, husni matla.

O‘zbek mumtoz adabiyoti Sharq adabiy an‘analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, unda tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar hamda hukmdorlar faoliyati badiiy-estetik talqin orqali ifodalangan. Ayniqsa, saroy adabiyoti doirasida yaratilgan asarlarda hukmdor shaxsini ulug‘lash, uning siyosiy faoliyati, adolatparvarligi, donoligi va jasoratini madh etish muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda ruboiy va qasida janrlari alohida ahamiyat kasb etib, ular orqali nafaqat hukmdor obrazining ideallashtirilgan talqini, balki davr mafkurasi va estetik qarashlari ham yoritilgan. Xorazm adabiy muhitining yirik vakillaridan biri bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahi

ijodi ushbu jihatdan alohida e'tiborga loyiqdir. Uning tarixiy-badiiy asari — Zubdatu-t-tavorix nafaqat tarixiy manba, balki yuksak badiiy qiymatga ega asar sifatida ham muhimdir. Asarda tarixiy voqealar bayoni bilan bir qatorda hukmdorlar faoliyati badiiy ifoda vositalari orqali tasvirlanadi. Xususan, hukmdor vasfiga bag'ishlangan ruboiy va qasida namunalari muallifning poetik mahorati, badiiy tafakkuri va estetik qarashlari yorqin namoyon bo'ladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Ogahiy ijodida hukmdor obrazining badiiy talqini, ayniqsa ruboiy va qasida janrlari orqali ifodalanishi yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shu bois ushbu maqolada "Zubdatu-t-tavorix" asarida uchraydigan hukmdor vasfiga bag'ishlangan she'riy namunalari janriy, uslubiy va mazmuniy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi Ogahiy asaridagi ruboiy va qasida janri namunalari ilmiy asosda o'rganish, ularning hukmdor obrazini yaratishdagi o'rni va badiiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun asardagi she'riy parchalar tahlil qilinadi, ularning janr xususiyatlari, badiiy vositalari va ideyaviy mazmuni ochib beriladi.

Ogahiy shoirlik mahoratini muarrixlik bilan omuxta holda olib borgan ijodkordir. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi lirik janrlar shoir she'riy kulliyotidan o'rin olgan she'rlardan badiiy qiymati jihatidan teng desak adashmagan bo'lamiz. Ogahiyning Rahimqulixon shohlik davri yoritilgan "Zubdatu-t-tavorix" asari tarkibidagi lirik janrlarning hajmi (2316 misra) jihatidan adabiy manba sifatida ham ahamiyatlidir. "Zubdatu-t-tavorix" asari 31 fasldan iborat bo'lib, unda ko'plab she'riy shakllarga ham duch kelamiz. Ularning ayrimlari janr sifatida qat'iy poetik xususiyatlariga ega bo'lsa, ayrimlari "nazm", "bayt", "manzuma", "she'r" kabi umumiy atamalar sifatida keltirilgan. Maqolamizda asardagi ruboiy va qasida janri namunalari tahlil qilinadi.

"Zubdatu-t-tavorix"da keltirilgan lirik janrlardan yana biri ruboiydir. Ruboiy haqida o'zbek adabiyotshunosligida bir qator izlanishlar olib borilgan[1-20]

"Zubdatu-t-tavorix"asarida 7 ruboiy keltirilgan bo'lib, ularning barchasi Rahimqulixonga bag'ishlangan. Ruboiylar hazaj bahrining axrab shajarasida bitilgan.

Ba'zi o'rinlarda ruboiylarning yaratilish sabablari ham batafsil ko'rsatib o'tilgan:

"... aksar avqot ul hazratning majlisi sharifi mulozamatig'a yetib, tab'im natoyijidin har turluk qasida va g'azal va ruboiy shohidlari manassai zuhurda jilvagar bo'lsa erdi, raqam zevari bila orasta qilib, nazari saodatasar mutolaasig'a yetkurur erdikim va o'zgalardin ortuqroq iltifotu in'omot bila sarafroz bo'lub, fuzalo va shuaro orasida mumtozliq topar erdim. ... majlisi humoyuni behishtnamunig'a tuhfa chekib, avotifi maxsusadin bahramand bo'lub, taxta-taxta choy, shabra-shabra qandolot in'omi bila shirinkomlig' topib erdim..."

... Va ul ruboiy budurkim, mastur bo'lur:

- Ey xoki daring toki erur joy manga,
- Farqi sharaf o'ldi charxfarsoy manga.
- Madhingni demakda bo'lamen shirinkom,
- Lutfu karam ayla qand ila choy manga[2-39].

"Zubdatu-t-tavorix" asaridan o'rin olgan lirik janrlardan yana biri qasidadir. Qasida janri tabiati, uning poetik belgilari, o'zbek adabiyotida tutgan o'rni masalasida bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud[5-16].

"Qasidaning aqalli yigirma yetti bo'lur yo andin o'ksukrak va aksari muayyan ermas, – deb yozadi Shayx Ahmad Taroziy. – Har necha qofiya dast bersa ayturlar va har ne maqsud bo'lsa bayong'a keltururlar"[3-32]

"Zubdatu-t-tavorix" asarida 454 misradan iborat jami 5 ta qasida mavjud.

Shayx Taroziy qasida janriga xos to'rt xususiyatni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Birinchisi – husni matla', ya'ni qasidaning boshlanishi ma'no jihatidan mutlaqo qusursiz latif so'zlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Ikkinchisi – mamduh (maqtaguvchi)-ning adlu insofi ta'riflanishi zarur. Uchinchi – mamduhning shijoati, to'rtinchi – saxovati maqtalishi lozim. "Va bu to'rt xislatdin ortuq har nechakim sifat qilur, ixtiyor shoirg'adur"[3-33].

"Zubdatu-t-tavorix"dagi barcha qasidalar ushbu janrning turkiy she'riyat nazariyotchisi

zikr etgan talablariga to'liq javob berishi haqida professor Nurboy Jabborovning fikrlari ahamiyatlidir[3-17,18]. Masalan, asardagi birinchi qasidaning ibtidosi "Fununu-l-balog'a"da aytilganidek, husni matla' san'atining betakror namunasi sanaladi:

Shahekim, ostoni ila topmish avji iste'lo –

Ki, gardun yastonib tufroqig'a bir hovush adno[3-28].

"Husni matla'"ni "husni ibtido" deb atagan Atoulloh Husayniyning yozishicha: "Ul andog'durkim, kalom boshinda noziklig-u ravonlikta va ularning ziddi bo'lmish qattiqlig'-u matonatta bir-biriga yaqin bo'lg'an xush-u latif lafzlardin pokiza, yoqimlig', mustahkam ibora tuzarlarkim, ma'no adosinda mutlaqan qusur bo'lmag'ay va tuzuk zehn andin maqsudg'a bot o'ta olg'ay, lafz-u ma'no orasinda munosabat rioya qilg'aylar, yaxshi ma'noni yengil alfoz bila yo aksincha ado qilmag'aylar, dag'i baytning ikki misrai yo nasrning ikki bo'lagi orasinda munosabat rioya qilg'aylarkim, latofatu balog'atta bir-biriga yaqin bo'lg'ay, biri a'lo-yu ikkinchisi adno bo'lmag'ay, ma'noning sog'lom bo'lmag'ig'a sa'y qilg'aylarkim, kelishmagan, qarama-qarshi, yaramas, urfqa xilof va hokazo nimalardin sog'lam bo'lg'ay..."[4-250,251].

Mazkur qasida matla'i ushbu nazariy qoidalarga har jihatdan muvofiq keladi.

Shayx Ahmad Taroziy ta'kidlagan ikkinchi xususiyat – mamduhning adl-u insofi vasf etilgan misralar ham Ogahiy qasidasida mavjud. Jumladan, shoir bunday yozadi:

Bahori adli andoq fayz etkurdi jahon ichra –

Ki, bo'ldi arsay olam ulusg'a jannatu-l-ma'vo.

Tutub ovozai adliki etti aflok ayvonin,

Malak taslimgo'yu ham duogo'ydur hazrati Iso.

Uchinchi – mazkur qasidada mamduhning shijoati ham teran ma'no va betakror badiiyat bilan ta'riflangan:

Aning zoti humoyunini kilki kotibi qudrat

Yozib sohibqironlig' daftari unvonida tug'ro.

Zihi sohibqironekim, qiron xasm ahlig'a solib,

Sipohi qahri yetkurdi zalolat mulkiga yag'mo.

To'rtinchi – qasidada xonning saxovati ham fasohat va balog'at bilan vasf etiladi.

Qasidaning quyidagi misralari ham bu fikrni tasdiqlaydi:

Xaloyiq naqdi ehsonidin oldi komin andoqkim

Gadoi benavo ahli g'anog'a qildi istig'no.

Atovu baxshishining xonidin mahzuz o'lub doim,

Duoi davlatig'a ochdi til ham piru ham barno.

Xonning mazkur to'rt fazilatini tavsiflash barobarida, Ogahiy mamduhning ilmu fazilat bobida kamolga erishganini, "har fan ichra davron aro mumtozu mustasno" darajasiga erishganini quyidagicha ta'riflaydi:

Kamoli borcha ilm-u fazl aro ul yerga yetmishdur –

Ki, har fan ichradur davron aro mumtoz-u mustasno.

Rahimqulixonning Xiva taxtiga kelishi tasodifiy emasligi, uning ajdodlari "xorazmshohlik niginin angushti iqtidorlarida tutub kelgan"i ham qasidada alohida zikr etilgan: "Na tanho dahr favqida hasab birla nasabda ham, Sarosar xonu xoqondur anga ajdod ila obo"[2-29].

Yuqoridagi misollardan Ogahiy qasidaları bu janrning poetik talablariga to'la javob bera oladigan mukammal asar ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari "Zubdatu-t-tavorix" asaridagi barcha ruboiylar hukmdor vasfiga bag'ishlanganligi va ruboiylarda to'g'ridan to'g'ri aytolmagan fikrlarini badiiy bezaklar orqali yetkazganligi Ogahiyning iste'dodli ijodkor ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Muhammad Rizo Ogahining Zubdatu-t-tavorix asarida hukmdor vasfiga bag'ishlangan ruboiy va qasida janrlari muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Ushbu janrlar orqali muallif nafaqat hukmdor shaxsini ulug'laydi, balki uning

siyosiy faoliyati, adolatparvarligi, donoligi va xalq oldidagi mas'uliyatini ham badiiy vositalar orqali ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ruboiy janri qisqa, ammo mazmunan chuqur va falsafiy umumlashmalarga boy bo'lib, hukmdor obrazining ma'naviy-axloqiy jihatlarini yoritishda samarali qo'llanilgan. Qasida esa keng hajmli, tantavor uslubga ega bo'lib, unda hukmdorning ulug'ligi, siyosiy qudrati va tarixiy ahamiyati keng ko'lamda tasvirlangan. Har ikki janrda ham obraz ideallashtirilgan holda berilib, davrning estetik va mafkuraviy qarashlari aks ettirilgan. Shuningdek, Ogahiy tomonidan qo'llangan badiiy tasvir vositalari — tashbeh, istiora, mubolag'a va ramziy ifodalar hukmdor obrazining badiiy mukammalligini ta'minlagan. Bu esa asarning nafaqat tarixiy manba, balki yuksak badiiy qiymatga ega adabiy yodgorlik sifatida ham ahamiyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Zubdatu-t-tavorix” asaridagi ruboiy va qasida janri namunalari o'rganish orqali o'zbek mumtoz adabiyotida hukmdor obrazini yaratish an'analari, janrlarning funksional imkoniyatlari va poetik xususiyatlari haqida muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida Ogahiy ijodi hamda umumiy mumtoz adabiyotdagi janrlar tizimini chuqurroq o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шодиев Эргашали. Ирсол-ул-масал рубойлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. – №5. – В.75.
2. Ҳаққулов Иброҳим. Рубой ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1974. – №6. – В.17.
3. Рубойда композиция ва қофия // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1975. – №3. – В.51.
4. Каримов Қ. Ғалат ўқилган бир рубой хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973. – №3. – В.75.
5. Ҳайитметов Абдуқодир. Бобур рубойларининг ғоявий-бадиий концепсияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1983. – №6. – В.20.
6. Зубдату-т-таворих. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi: prof. N.Jabborov. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2019. – 17-18,28-29,39-b
7. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. – Тошкент: “Ҳазина”, 1996. 32-33-bet.
8. Atoulloh Husayniy. Vadoyi'u-s- sanoyi'. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
9. Абдуллаев Исмагулла. X asr Бухорода ёзилган қасидалар ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1962. – №6. – В. 16.